



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti

PTI-75 guruh talabasi

Gaybullaev Jasrulla Ikmatulla og'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi jarayonlari, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar va raqamlashtirishning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli transformatsiya, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, axborot texnologiyalari, "Raqamli O'zbekiston – 2030", GII, elektron hukumat, samaradorlik, raqobatbardoshlik.

Kirish: Bugungi kunda har qanday mamlakat o'z iqtisodiyotini zamonaviy tendensiyalarga mos ravishda rivojlantirish yo'lida ketmoqda. Iqtisodiy sohalarda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish shular jumlasidandir. Mazkur texnologiyalar biznes jarayonlaridan tortib, davlat boshqaruvi, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlariga qadar keng joriy etilib, samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Mamlakatimiz ham ushbu jarayondan ortda qolmay, raqamli iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi. Ya'ni Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 05.10.2020-yilda "Raqamli O'zbekiston -2030"¹ strategiyasi va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-sonli Farmoni tasdiqlandi. Bunda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



tadbirlar amalga oshirish kabi masalalar yoritilgan. Ushbu dasturning asosiy maqsadi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, global raqobatbardoshlikni kuchaytirishdir va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishdir. Strategiya O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari hamda o'rta va uzoq muddatli istiqbolli vazifalarini belgilaydi, shuningdek, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi: O'zbekiston iqtisodiyotiga raqamli transformatsion jarayonlarni amalga oshirish borasida hozirga qadar ko'plab mutaxassislar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Ular o'z tadqiqotlarida iqtisodiyotda raqamli transformatsiyani turlicha talqin etadilar.

Shu jumladan soha olimlarining "raqamlashtirish" va "raqamli iqtisodiyot" haqida bergan tushunchalarini ko'rib chaqidigan bo'lsak bunga ko'ra, raqamli iqtisodiyot tushunchasi birinchi bo'lib, 1994-yilda Tapscottning "Raqamli iqtisodiyot: tarmoqli razvedka asrida va'da va xavf-xatar"² nomli asarida keltirilgan. Uning fikricha, raqamli iqtisodiyot bilimlarni boshqarish, raqamli aloqa, vertualizatsiya, internet orqali integratsiya, vositachilardan qochish, sohalarni yaqinlashtirish, innovatsiya, iste'molchiga indivudal xizmat, tezkor javob, globalizatsiya, raqamli bo'linish kabi xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. N.M.Maxmudovni fikricha, globallashtirish sharoitida istalgan mamlakatning iqtisodiy ta'minlash va jahon maydonida raqobatbardoshligini oshirishda ko'p jihatdan raqamli iqtisodiyotning samarali modellari borligini hamda raqamli iqtisodiyot xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinishidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni

² D.Tapscott, "The digital Economy: promise and peril in the age of networked intelligence." – New York: McGraw-Hill. – 1997.



qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni etkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tatbiq qilishdir. U "boshqacha qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron to'lovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir" ³ deb ta'kidladi. Jumladan, Shirin Mukhammedova tomonidan "Raqamli iqtisod va O'zbekiston: zamonaviylashtirish jarayonlarini tahlil etish" yozilgan maqolada esa O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonlari va bu jarayonlarning O'zbekiston iqtisodiyoti, siyosati va jamiyatiga o'rni tahlil qilinadi. Maqolada raqamli iqtisodning O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish strategiyalariga qanday ta'siri bo'lishi, yangi texnologiyalar va innovatsiyalar muhim muammolar va maslahatlarni yechishda qanday rol o'ynaydi, shuningdek, O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotda yutuqlariga erishish uchun kerakli qadamli ishlar mavzusida tahlil va tavsiyalar beriladi. Bu sohada tadqiqot olib borgan mahalliy tadqiqotchilarimizdan U.Xusanov raqamli transformatsiya - bu ularni amalga oshirish uchun raqamli vositalardan keng foydalanish bilan biznes jarayonlarni chuqur qayta tashkil etish bo'lib, bu ularning xususiyatlarini sezilarli darajada yaxshilanishi (bajarish vaqtini qisqartirish, kichik jarayonlarning butun guruhlarini yo'q qilish, jarayonlarni amalga oshirish uchun sarflangan resurslarni qisqartirish yoki yangi xususiyatlarning paydo bo'lishi)ga olib keladi⁴ deb hisoblaydi.

Muhokama va natijalar:

O'zbekistonda hozirgi kunda iqtisodiy jarayonlar xalqaro integratsiyaning kuchayishi hisobiga shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Bunday rivojlanish nafaqat

³ N.M.Maxmudov, N.R.Avazov Raqamli iqtisodiyot—qulay investitsion muhitni shakllantirishning asosi //Материалы

⁴ Xusanov, U. (2024). Raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya haqida nazariy qarashlar. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(4), 617–622. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss4-pp617-622>



ijtimoiy, madaniy sohalarga balki iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Bunday ta'sirni aks ettiradigan jarayonlardan biri bu iqtisodiyotdagi raqamli transformatsiyalarning amalga oshirilishidir. Raqamli transformatsiyalashni amalga oshirish iqtisodiyotning barcha sohalariga va jarayonlariga birdek ta'sir qilish imkoniyatiga ega va doimiy ravishda o'zgarib turish xususiyatiga ega. Innovatsion axborot texnologiyalar, s⁵un'iy intellekt, yuqori tezlikdagi Internet kabi zamonaviy ilm-fan yutuqlari O'zbekistonda ham raqamli o'zgarishlarni sodir bo'lishini tezlashtirmoqda. Birgina, dunyo amaliyotida 2024-yildan qo'llanib kelinayotgan Global Raqamlashtirish Indeksi bo'yicha O'zbekiston ham ushbu ro'yxatda kiritilganligi muhim natijadir.

Global innovatsion indeks (GII) natijalari

Yil	GII o'rni	Innovatsion resurslar (Inputs)	Innovatsion natijalar (Outputs)
2020	93-o'rin	81-o'rin	118-o'rin
2021	86-o'rin	75-o'rin	100-o'rin
2022	82-o'rin	68-o'rin	91-o'rin
2023	82-o'rin	72-o'rin	88-o'rin
2024	83-o'rin	71-o'rin	91-o'rin
2025	79-o'rin	69-o'rin	92-o'rin

1-rasm ⁶

Ushbu jadval O'zbekistonning Global Innovation Index (GII)dagi pozitsiyasining so'nggi yillardagi ijobiy dinamikasini ochib beradi. 2020 yildan 2025 yilgacha GII o'rni 93-o'rindan 79-o'ringa yaxshilangan. Bu mamlakatda innovatsion faoliyat, texnologiyalarni qabul qilish va raqamli transformatsiya jarayonlarining rivojlanishini ko'rsatadi.

⁶ <https://ipkitten.blogspot.com/2025/09/the-global-innovation-index-gii-2025.html>



1. **Innovatsion resurslar (Inputs) va natijalar (Outputs)** indekslarining sezilarli yaxshilanishi raqamli iqtisodiyotga davlat tomonidan, xususan 2030 strategiyasi doirasida katta e'tibor qaratilganligini anglatadi.

2. Raqamli transformatsiya nafaqat texnologiyalarni qabul qilishda, balki innovatsion xizmatlar va mahsulotlarni yaratishda ham ijobiy o'zgarishlarni olib kelmoqda.

3. GIIning yaxshilanishi, ayniqsa innovatsion resurslar bo'yicha ko'rsatkichlar, raqamli infratuzilma, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilmiy-texnikaviy salohiyatning rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

Shu bilan birga, O'zbekistonning raqamli transformatsiyaga yo'naltirilgan strategik yondashuvi mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda, yangi ish o'rinlari yaratishda, xususiy sektorni rivojlantirishda va xalqaro maydonda raqamli xizmatlar eksportini kengaytirishda asosiy omil bo'lmoqda.

Xulosa va takliflar: O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida strategik ahamiyatga ega bo'lib, yangi rivojlanish bosqichiga o'tishni ta'minlaydi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat ishlab chiqarish va xizmatlar samaradorligini oshiradi, balki davlat boshqaruvi tizimining shaffofligi va tezkorligini kuchaytiradi, aholining zamonaviy xizmatlardan qulay foydalanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, biznes subyektlari yangi bozorlar va innovatsion imkoniyatlarni samarali egallash imkoniyatiga ega bo'ladi. Raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati uchun barcha hududlarda infratuzilmani rivojlantirish, aholining raqamli savodxonligini oshirish va yuqori malakali IT mutaxassislarini tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik raqamli loyihalarni tezkor va samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlikni ta'minlash axborot resurslarining xavfsizligini kafolatlaydi va raqamli tizimlarga ishonchni oshiradi.



Kelajakda O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati innovatsion yechimlar va raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Davlat tomonidan belgilangan strategik chora-tadbirlar milliy iqtisodiyotni global bozorlarga integratsiyalashuvini kuchaytiradi. Shu sababli, raqamli transformatsiya mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida asosiy vosita sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079 son Farmoni 05.10.2020-yil Manba: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. D.Tapscott, “The digital Economy: promise and peril in the age of networked intelligence.” – New York: McGraw-Hill. – 1997.
3. N.M.Maxmudov, N.R.Avazov Raqamli iqtisodiyot—qulay investitsion muhitni shakllantirishning asosi //Материалы
4. Xusanov, U. (2024). Raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya haqida nazariy qarashlar. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(4), 617–622. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss4-pp617-622>
5. <https://ipkitten.blogspot.com/2025/09/the-global-innovation-index-gii-2025.html>